

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan nutqiy kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan darslar tahlili

Nigora Qodirjon qizi Sobirova
Namangan davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan nutq kamchiliklari va ularni bartaraf etish darslari tahlili xususida batafsil ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: nutq, o'quvchi nutqi, o'quvchining ruhiyati, nutqiy kamchiliklar, «Tez va soz» o'yini, zamonaviy texnologiyalar, nutqiy mashqlar

Analysis of lessons aimed at eliminating speech defects found in younger schoolchildren

Nigora Kodirjon kizi Sobirova
Namangan State University

Abstract: This article discusses in detail the speech defects encountered in younger schoolchildren and the analysis of lessons on overcoming them.

Keywords: speech, student's speech, student's psyche, speech mistakes, the game "fast and excellent", modern technologies, speech exercises

Nutq faoliyatining o'ta murakkab, ilmiy jihatdan hali yetarli darajada o'rganilmagan ruhiy jarayonlarga asoslanganligi bu faoliyatni ta'limiy maqsadlarda tashkil etishda katta qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Bu boradagi tashkiliy ishlarni yo'lga qo'yishda o'quvchining ongida kerakli ruhiy kechinmalarni yuzaga keltira oladigan, shu kechinmalarning tabiatiga mos keladigan ta'limiy usul va vositalarini tanlab olish eng muhim va murakkab vazifalardan biri hisoblanadi. Bu vazifani hal qilishda o'quvchining ruhiyatiga xos bo'lgan jihatlarni hisobga olmaslik qanday salbiy oqibatlarga olib kelishi xususida fikr yuritimiz.

Nutqni shakllantiruvchi ta'limni amalga oshirish uchun kerakli usul va vositalarni tanlab olish bilan bog'liq masalalarni to'g'ri hal qilishning eng asosiy mezonini va bitmas-tuganmas manbai tabiiy muloqot jarayoni ekanligini e'tirof etish zarur. Bu o'rinda eng mukammal, har taraflama asoslangan usul va vositalar ham tabiiy muloqotning barcha xususiyatlarini o'zida to'liq aks ettira olmasligini ham eslatib o'tish joiz. Zero, dars jarayonida qo'llaniladigan usullar o'quvchi muloqotini tabiiy

muloqotga ma'lum darajada yaqinlashtirishi mumkin, lekin bu ishni bajarishda o'quvchilarga hayotiy muloqot sharoitini to'liq ta'minlab berishning imkoniyati yo'q.

Ona tili va o'qish darslarini hozirgi zamon talablariga to'liq javob beradigan usullar va vositalar yordamida tashkil etish uchun bir qator masalalarni hal qilish kerak bo'ladi. Bu ishni quyidagi yo'nalishlarda olib borish mumkin:

1. Ona tili va o'qish darslarida qo'llaniladigan an'anaviy usul va vositalarni nutq faoliyati nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish.

2. Ta'lim sohasiga bevosita aloqador fanlar bo'yicha o'tkazilayotgan zamonaviy tadqiqotlarni ko'zda tutgan holda yangi usul va vositalarni yaratish.

Ma'lumki, har qanday o'quv fani uchun kerakli usul va vositalarni belgilashda shu fanning mazmunini aniqlash bilan bog'liq masalalarni ham yechishga to'g'ri keladi. Demak, yuqorida ko'rsatib o'tilgan vazifalarni bajarishda ana shu talabni hisobga olish lozim.

Nutq faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yishning eng muhim shartlaridan biri darsda muloqot muhitini yartishdir. Bunday muhitning yuzaga kelishi ko'p jihatdan o'quvchining o'qituvchiga va sinfdoshlariga qanday munosabatda bo'lishiga bog'liq. Nutq o'stirishga, to'g'rirog'i, o'quvchilarda uchraydigan nutqiy kamchiliklar va ularni bartaraf etishga mo'ljallangan an'anaviy usullarni tahlil qilish chog'ida ko'rsatib o'tilganidek, o'quvchining faoliyati berilgan topshiriqlarni bajarish bilan cheklanganligi uchun u o'zini erkin tuta olmaydi. Zero, o'quvchi faqat o'qituvchi taklif qilgan ishni bajarishi, uning rejasiga to'g'ri keladigan gapni gapirishi yoki yozishi mumkin. Bundan tashqari, o'quvchi har qanday ishni bajarish chog'ida shu jumladan, nutq mashqlari jarayonida ham o'qituvchining asosiy maqsadi muloqotga kirishish emas, balki o'quvchilarni nazorat qilish, baho qo'yish ekanligini his qilib turadi. O'quvchining ruhiyatiga salbiy ta'sir qiladigan omillardan yana biri shundan iboratki, darsda beriladigan har qanday topshiriqni o'quvchi ta'limiy maqsadga qaratilgan sun'iy muloqot sifatida qabul qiladi. Bunday kechinma o'quvchida dars davomida o'tkaziladigan har qanday muloqot tanqidiy munosabatning shakllanishiga olib keladi. Ana shunday kamchiliklarning sabablarini aniqlash va ularni bartaraf qilish sohasida olimlar va ko'plab iqtidorli o'qituvchilar juda katta ishlarni amalga oshirganlar. Shu sohadagi izlanishlar asosidada ta'lim nazariyasi va amaliyotining yangi yo'nalishi - hamkorlik pedagogikasi yuzaga keldi. Ushbu pedagogikaning an'anaviy pedagogikadan farqi shundaki, bunday usulda ish olib boradigan o'qituvchi o'quvchilar bilan munosabatni teng huquqlilik asosida tashkil qilishga, o'quvchilar bilan hamkorlik o'rnatishga harakat qiladi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilarning mustaqil izlanishlari uchun sharoit yaratishi, bilim olishga qaratilgan faoliyatini ijodiy faoliyat bilan chambarchas bog'lanishiga e'tibor beradi. Hamkorlik pedagogikasi asosida ish olib boradigan o'qituvchi o'zining o'quvchilardan har taraflama ustun ekanligini, kerakli bilimlarni faqat o'zi bera olishi mumkinligini ta'kidlashga harakat qilmaydi.

Aksincha, u bolalar bilan muloqot qilishdan o'zi ham manfaatdor ekanligini, o'quvchilar ham ko'p narsalarni, hattoki, o'qituvchining o'zi ma'lum sababga ko'ra bilmaydigan narsalarni ham bilishlarini ko'rsatishga intiladi. Agar o'qituvchi o'quvchilar bilan shunday munosabatda bo'lsa, uning obro'siga putur yetmasmikan degan e'tiroz paydo bo'lishi ham mumkin. Bunday salbiy holatning vujudga kelishi yoki kelmasligi o'qituvchining o'ziga bog'liq. Bu borada V.A.Kan-Kalikning quyidagi fikri diqqatga sazovordir: «Bolalar bilan munosabatni shunday yo'lga qo'yingki, sizning yetakchilik mavqeingiz tabiiy ravishda butun pedagogik jarayon mantiqidan kelib chiqsin»¹. Bundan ko'rinadki, hamkorlik pedagogikasida o'qituvchining mavqei yuqoridan tazyiq o'tkazish evaziga tiklashga tamomila barham berish ko'zda tutiladi. Bundan kelib chiqadiki, hamkorlik asosida ish yuritadigan pedagog qattiqqo'llik, quruq pand-nasihati o'qish, o'quvchilarni tergap turish kabi «sinalgan» usullardan voz kechishga to'g'ri keladi. Albatta, darsda o'quvchilarni o'z holiga tashlab qo'yish bilan ham biror natijaga erishib bo'lmaydi. Zotan, darsda berilayotgan bilimlarni egallash uchun o'quvchi ma'lum bir qiyinchiliklarni yengib o'tishi, buning uchun irodani ishga solishi kerak bo'ladi. Tajribadan shu narsa ma'lum bo'ladiki, o'quvchilarning ko'pchiligi irodaga suyangan holda amalga oshiriladigan faoliyat jarayonida ma'lum bir vaqtdan so'ng bajarilayotgan ishdan chalg'iy boshlaydilar. Ana shunday holatlarda o'qituvchi bolalarga o'z ta'sirini o'tkazishi kerak bo'ladi. Ammo bu vazifani bajarish uchun faqat ijobiy omillardan foydalaniladi. Ma'lumki, bunday omillar qatoriga bajarilayotgan ishdan zavqlanish, o'z kuchiga va qobiliyatlariga ishonchining ortishi kabi kechinmalar kiradi.

Demak, hamkorlik pedagogikasining g'oyalarini o'qish darslariga joriy qilinsa, darslarda muloqot muhitini yaratish uchun katta imkoniyatlar paydo bo'lar edi. Jumladan, shunday pedagogik uslub o'qituvchi bilan o'quvchilar o'rtasidagi munosabatni tubdan yaxshilashga sharoit yaratishi mumkin.

Muloqot usulini ona tili va o'qish darslarining barcha bosqichlarida qo'llash mumkin. Shu usul asosida o'tkaziladigan darsda yangi mavzuni tushuntirish va uni mustahkamlash uchun mo'ljallangan ishlarni quyidagi tartibda amalga oshirish mumkin:

1. O'quvchilarni biror mavzu bo'yicha muloqotga jalb qilish.
2. O'tkazilgan muloqotning mazmunini tahlil qilish.
3. O'quvchilarning diqqatini muloqot jarayonida fikrlarni bayon qilish uchun qo'llangan til vositalariga qaratish, shu vositalarning xususiyatlarini tushuntirish.
4. Yangi o'zlashtirilgan mavzuni ko'zda tutgan holda o'quvchilarning nutqini takomillashtirish.

¹ WWW ref.uz. Kann-Kalik V.A. Pedagogik muloqot haqida. - M., 2000.-S. 34.

5. O'quvchilarni jonli muloqotga tortib, ular bilan birgalikda biror hayotiy muammoni hal qilish.

Mazkur usul nutqning mazmunidan kelib chiqqan holda uning shaklini egallash, so'ngra shu shakllar yordamida nutqni takomillashtirish va jonli muloqot yo'li bilan muayyan hayotiy muammolarni hal qilishni ko'zda tutadi.

Yangi mavzuni muloqot usulida tushntirishga o'quvchini hech qanday tayyorgarliksiz bevosita nutq faoliyatiga jalb qilish ko'zda tutiladi.

Masalan: 2-sinf o'qish darsligida berilgan «Kitob, mening do'stiman» mavzusi orqali fikrimizni to'liq yoritib berishimiz mumkin.

Kitob - mening do'stiman.

Darsning maqsadi:

1) ta'limiy maqsad: to'g'ri, ravon va ifodali o'qish malakasini takomillashtirish, kitobning yaratilishi, uning inson hayotidagi ahamiyati haqida ma'lumot berish;

2) tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarni kitob o'qishga qiziqtirish, uni asrash yo'llarini o'rgatish;

3) rivojlantiruvchi maqsad: ravon, to'g'ri va ifodali o'qish malakasini rivojlantirish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi.

Darsning metodi: suhbat metodi.

Darsning jihozi: Darslik, kitoblar ko'rgazmasi, testlar.

Darsning borishi.

I. O'tgan darsni takrorlash va mustahkamlash maqsadida suhbat uyushtiriladi:

1. Hikoya nima uchun «Kitobni asrang» deb nomlangan.

2. Qadimda kitob qanday asralgan?

3. Hozir Italiyada noyob tarixiy kitoblar qanday asralyapti? (Bu ma'lumot oldingi darsda gapirib berilgan bo'ladi: suvning bug'lanishi, suv bosishi natijasida kitoblar nam tortib, mog'orlab ketayotgani uchun uni yelim haltalarga solib, uning ichidagi havo chiqarilib, o'z holida saqlashga erishilyapti.)

II. «Kitobni asrang» hikoyasini o'qitish.

III. Didaktik o'yinlar:

a) «Kim ko'p kitob o'qigan?» (darslikdan tashqari)

1-variant. Kim ko'p ertak nomini aytadi?

2-variant. Kim ko'p ertak qahramonlari nomini aytadi?

3-variant. Kim ko'p hikoyalar nomini aytadi?

Natijani hisoblash uchun o'qituvchi o'quvchilardan birini chaqirishi mumkin. Natija hisoblanib, g'oliblar taqdirlanadi.

b) «Tez va soz» o'yini.

Bunda asosiy e'tibor kitob ta'mirlashga qaratiladi. 3 ta bo'sh partalarda har birining ustiga 1 tadan eskeroq kitob va ularni ta'mirlash uchun yelim, skotch, qaychi

qo'yilib, uch o'quvchi taklif etiladi. Ularga vaqt belgilanadi. O'quvchilar esa olqishlab turishadi. G'olib o'quvchilar rag'batlantiriladi. (Bu o'yinni qatorlararo ham o'tkazish mumkin.)

IV. Yangi mavzu bayoni. Bu darsda ham kitob haqidagi she'r- «Kitob, mening do'stimsan» she'ri o'qilishi aytilib, doskaga mavzu yoziladi. Zafar Diyor haqida ma'lumot beriladi, portreti ko'rsatiladi. Zafar Diyor sevimli bolalar shoiri bo'lib, u 1912-yilda Chust tumanida tavallud topgan. Zafar Diyor bolalar uchun juda ko'plab kitob yozgan. Uning «Qo'shiqlar», «Tantana», «She'rlar», «Muborak», «Suv bilan suhbat» kabi ko'plab kitoblarini bolalar sevib o'qiydilar.

Kitob haqida quyidagicha suhbat o'tkaziladi:

1. Kitoblar qayerda turadi? (Kitob javonida.)
2. Kitob orqali biz nimalarni egallaymiz? (Bilimlarni egallaymiz.)
3. Kitobni nima uchun asrashadi? (Bolalar o'qishi uchun. Biz ham darsliklarimizni asrashimiz kerak. Kitoblar qimmat, Undan bizning ukalarimiz, singillarimiz ham foydalanishadi. Kitobga ko'p kishilarning mehnati singan.)
4. She'rni ifodali o'qib berish yoki yoddan aytib berish yo'li bilan tanishtiriladi.
5. Lug'at ishi. Notanish so'zlar doskaga yoziladi, uni o'qiydi va ma'nosi izohlanadi.

Shuur-ong, bilim, tushuncha.

Sahifa-bet.

6. She'r o'quvchilarga o'qitiladi.
7. Tanlab o'qish. Birinchi misrani o'qib, mazmunini tushuntiring, kim kitobdagi olim bo'lishga undagan o'rinni topib o'qiydi kabi topshiriqlar beriladi.
8. Maqolni o'qib, mazmuni tushuntiriladi. O'quvchilardan bilgan maqollari so'raladi. Yaxshi bilgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

9. Boshqotirman yechish.

Javob: Kitob bilim manbai.

10. O'quvchilar bilimni nazorat qilish.

Test.

V. Uyga vazifa: she'rni yod olish, ifodali aytishga tayyorlanib kelish.

VI. O'quvchilarning reytingini e'lon qilish.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, yangi mavzuni tushuntirish va mustahkamlash jarayonida muloqot usulidan foydalanish bolalarni erkin va mustaqil fikrlash malakalarini o'sishiga, erkin va mustaqil fikrlash doirasini kengayishiga, ularda uchraydigan nutqiy xatolar va ularni bartaraf etishga olib keladi. Bunda o'z navbatida ta'lim jarayonida keng qo'llanilayotgan ilg'or pedagogik texnologiyaning o'zni kattadir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan nutqiy kamchiliklar va ularni bartaraf etish darslarini har bir o'qituvchi qiziqarli tarzda tashkil etib olib borsagina bu kabi kamchiliklarni sezilarli ravishda kamayishiga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni fat'iyat bilan bardavom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. I jild.- Toshkent: O'zbekiston, 2019.- 592 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari. IV jild.- Toshkent: O'zbekiston, 2020.- 456 b.
3. Ernazarov G'. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi.- Toshkent: Ilm Ziyo, 2013.- 184 b.
4. Fuzailova S. Ona tili: umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik.- Toshkent: O'qituvchi, 2019.- 152 b.
5. Ikramova R. va boshqalar. Ona tili: umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik.- Toshkent: O'qituvchi, 2017.-192 b.
6. Qosimova K. Ona tili: 2-sinf uchun darslik.-Toshkent: Cho'lpon, 2018.-144 b.
7. WWW ref.uz. Kann-Kalik V.A. Pedagogik muloqot haqida. - M., 2000.-S.
8. Kamolova, A., & Ergasheva, G. S. Q. (2022). Yosh avlodni tarbiyalashda xalq pedagogikasini manbalarining o'rganishning o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari. *Science and Education*, 3(12), 590-592.
9. Kamolova, A. O. Q., & Husaynova, S. I. (2023). O'smirlar o'rtasida axloqsizlikni oldini olishda pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari. *Science and Education*, 4(2), 969-972.
10. M.Ya., & Kamolova A.O. (2021). O'SMIRLARGA HUQUQIY BILIM BERISHDA KEYS STADI TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH. *Экономика и социум*, (8 (87)), 42-45.
11. кизи Ахмедова, Д. С., & кизи Камолова, А. О. (2022). ЎСМИРЛАРДА МЕЪЁРДАН ХУЛҚИЙ ОҒИШ ХОЛАТЛАРИНИ КОРРЕКЦИЯЛАШ ЖАРАЁНЛАРИДА ХУҚУҚИЙ САВОДХОНЛИКНИНГ АХАМИЯТИ. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(3), 413-416
12. Nishonova, M. Y., & Kamolova, A. O. (2021). USING CASE STADE TECHNOLOGY IN LEGAL EDUCATION FOR TEENAGERS. *Экономика и социум*, (8), 42-45.